

BUXORO ME'MORCHILIK TARIXINING NODIR SAHIFASI: SITORAYI MOXI XOSSA MAJMUASI

Omonova Madinabonu O'tkir qizi

Nizomiy nomidagi O'zbekiston milliy pedagogika universiteti Tarix fakulteti tarix yo'nalishi 301-
guruh talabasi

Annotatsiya: Mazkur tadqiqotda insoniyat sivilizatsiyasining ma'naviy va moddiy rivojlanishiga asrlar bo'yi beqiyos ulush qo'shib kelgan qadimiy Buxoro shahridagi noyob me'moriy meros namunasi — Sitorayi Moxi Xossa saroyiga oid tahliliy mulohazalar keltirilgan hamda uning bunyod etilish tarixi batafsil ko'rib chiqilgan.

Kalit so'zlar: Buxoroyi sharif, Moxi Xossa, Amir Olimxon, Qoryog'di Jumayev, usta Shirin Murodov, shaharsozlik san'ati

Abstract: This research presents an analytical examination of the Sitorayi Mokhi Khossa palace complex, a remarkable architectural heritage site of ancient Bukhara that has contributed immensely to the spiritual and material progress of human civilization over the centuries, along with a detailed account of its construction history.

Key words: Bukhara, Mokhi Khossa, Amir Olimkhan, Koryogdi Jumayev, master Shirin Murodov, art of urban planning.

Аннотация: В настоящем исследовании представлен аналитический обзор дворцового комплекса Ситораи Мохи Хоса — выдающегося памятника архитектурного наследия древней Бухары, внёсшего неоценимый вклад в духовное и материальное развитие человеческой цивилизации на протяжении столетий, а также подробно рассмотрена история его возведения.

Ключевые слова: Бухара, Мохи Хосса, Амир Олимхан, Корёгди Джумаев, мастер Ширин Муродов, искусство градостроительства.

Dunyoda muqaddas va mo'tabar shaharlar ko'p. Lekin ular orasida asrlar davomida tarix sinovlaridan muvaffaqiyatli o'tib, buyuklik maqomini saqlagan holda, kelajak sari dadil intilib kelayotganlari kamdan-kam uchraydi. Buxoroyi sharif — ko'p asrlik tarix va madaniyat, milliy o'zlik, ilm-ma'rifat, diniy qadriyatlar, ezgulik, farovonlik va tinchlik, Vatanga bo'lgan sadoqat hamda muhabbatning timsoli sifatida e'tirof etilgan shahardir. Taxminan uch ming yillik tarixni o'zida mujassamlashtirgan bu muazzam shahar bilan g'ururlanishga haqli ekanligimiz shubhasizdir.



Buxoro amirlarining Sitorayi Moxi Xossa yozgi qarorgohida XIX—XX asrlar Sharq nafis me'morchilik an'analari xalq badiiy hunarmandchiligi ustaligi bilan uyg'unlikda namoyon bo'lgan. Markaziy Osiyodagi birorta me'moriy majmuada binoni barpo etgan hunarmandlarning naqshu nigorlari va koshona bezaklarining bu qadar uyg'un mushtarakligini ko'rish mumkin emas. Ayni shu sabab ko'plab shoirlar uni qo'shiqlariga mavzu qilib olishgan.

Sitorayi Moxi Xossa saroyning qurilish tarixi haqida turli xil rivoyatlar mavjud. Buxoro amiri Muzaffarxonning go'zallikda tengi yo'q, suyukli xotini bo'lib, uning ismi Sitorabonu ekan.

Afsuski, Sitorabonuning hayoti g'oyat qisqa kechgan: u ko'p azob chekib Abdulahadxonni dunyoga keltirgandan so'ng olamdan o'tgan. Bu fojiali hodisadan so'ng amirning ko'ngliga qayg'u cho'kkan va u nihoyat sevikli zevajasining xotirasini abadiylashtirish niyatida otasi qo'l urgan yozgi saroyga uning nomini berish qaroriga kelgan. Shunday qilib, amir o'z jufti halolining sharafiga "Sitorayi Moxi Xossa" — ya'ni ko'ngildagi yulduz va osmonning uni aks ettiruvchi oyiga mos keladigan ulug'vor saroy qurdirmoqchi va uni go'yo yerdagi bir jannatga aylantirishni maqsad qilib qo'ygan edil. Shu xildagi rivoyatlar tarixda ko'plab uchraydi. Saroyi haqiqatdan ham Muzaffarxon sevikli rafiqasi Sitorabonuga atab nomlagan bo'lishi mumkin.

Biroq bu rivoyatni tasdiqlaydigan hech qanday tarixiy hujjat va dalillar hanuzgacha topilmagan.

Saroy qurilishi uchun joy tanlash ham o'ziga xos muammo bo'lgan. Hukmdor davlatning barcha ulug' donishmandlarini huzuriga to'plab, kelgusi qasr uchun yozning jaziramasini uchun salqin, qishning qahratonida esa iliq bo'ladigan qulay makoni aniqlashni topshirgan. Maslahatchilar bunday joyni belgilash uchun Buxoroyi Sharifning to'rt tomoniga chiqadigan to'rtta darvozasiga bittadan qo'y so'yib osib qo'yishni taklif etishgan.

Samarqand darvozasiga osilgan qo'yning go'shti boshqalarga nisbatan sekinroq buzilib borgani bois, amir ushbu darvozadan to'rt chaqirim narida qasr qurish haqida farmon bergan. Bular, albatta, xalq orasida yurib kelayotgan rivoyatlar; tarixiy manbalar esa Sitorayi Moxi Xossa saroyiga Nasrulloxonning asos solganini tasdiqlab beradi. Nasrulloxon davrida qurilgan ushbu saroyning birorta qismi bugungi kunga qadar saqlanib qolmagan.

Buxoroda hukmdorlar tomonidan bino qilingan, o'z go'zalligi jihatidan bir-birini qoraydigan maskanlar nimqoron emas. Bularga mang'it sulolasi hukmdorlari tomonidan Sherbudin va Karman qo'rg'onlarida barpo etilgan istirohat maskanlarini, Chorbakr maqbarasi yaqinida qad ko'targan Sumitan chorbog'ini, Sitorayi Moxi Xossa atrofida Bog'i Bozorcha, Chorbog'i gul, Ko'lbayi-gulkoron, Dilkusho, Chorbog'i Xossa, Bog'ishamol-Fayziobod, G'urbin bog'lari va boshqa inshootlarni kiritish mumkin. Ammo ular hozirgi davrgacha saqlanib qolmagan. Butun Markaziy Osiyo bo'ylab bizga nisbatan yaxshi



saqlanib yetib kelgan hukmron zotlar yozgi saroylarining yagona ko'rinishi Sitorayi Moxi Xossadir va uning tarixida bir yarim asrdan ortiq davr o'z aksini topgan.

Bizga yetib kelgan rivoyatlarga qaraganda, Muzaffarxon saroy qurilishining eng mayda tafsilotlariga ham alohida e'tibor qaratib, hatto qurilish jarayoniga shaxsan faol ishtirok etgan.

Ne afsuski, Muzaffarxon hukmronligi davrida qarorgohda bunyod etilgan inshootlar bugungi kungacha yetib kelmagan. Uzoq yillar ta'mirni talab qilib turgan ikki sinchli katta mehmonxona 1986-yilda qulab tushgan va undan faqat bir surat meros bo'lib qolgan.

Amirning qadimiy saroyini Muzaffarxon davri, ya'ni XIX asr oxirida, usto Xoja Hafiz, usto Nasrullaboy, usto Ostonqul va boshqa hunarmandlar qurgan. Bu majmua ixcham binolardan iborat bo'lib, buxoroliklar uslubidagi sinchli turar-joylar orasida G'arb me'morchiligi ruhida ishlangan markaziy bino o'z ko'rinishi bilan alohida ajralib turardi.

Uning old qismi simmetriya, burchakli shakl va ayvon bilan ziynatlangan edi. Qadimgi saroyda mahalliy mansabdorlar va badavlat kishilar, yangi saroyda esa chor amaldorlari qabul qilinardi.

Abdulahadxon hukmronligi davrida qurilgan va bizgacha yetib kelgan saroy inshootlari o'ziga xos me'moriy yechimga ega. Ular orasida to'rtburchak shaklida barpo etilgan katta zal saroyning o'zak qismi sanaladi. Bu zalning ikki yonida bir-biriga ro'para joylashtirilgan, teng darajada bezatilgan sakkiz qirrali ikkita kichik zal bor. Toshidan ishlangan naqshli zinapoya esa ushbu ikki zal orasida maxsus bir pog'ona hosil qilgan. Pog'onaning ikki tomoni yumaloq shaklda qurilib, usti va ostiga bezatilgan ustunlar kirish yo'laklariga alohida nafislik bag'ishlagan.

Pog'onaning g'arb tomoniga hukmdor taxti o'rnatilgan. Abdulahadxon shu taxtda o'tirib nafaqat katta zalda, balki ikkala sakkiz qirrali zalda ham joylashgan mehmonlarni bemalol ko'ra olgan.

Muzaffarxon va Abdulahadxon qurdirgan inshootlarda Sharq me'morchiligining Buxoro va Isfahon maktablari ta'siri qisman seziladi, xolos. Bu tasodifiy emas. Ikkala hukmdor ham Buxoro uchun yangilik bo'lmish G'arb me'morchilik uslubini joriy etishga intilgan. Shu maqsadda bir guruh hunarmandlar Yalta va Peterburg shaharlarini ziyorat qilib qaytishgan. Bundan tashqari, rus muhandisi Sakovich ham qarorgoh qurilishini boshqarish uchun Buxoroga maxsus taklif etilgan.

Afsuski, hozirgi vaqtga kelib, Muzaffarxon va Abdulahadxon davrida qarorgohda barpo qilingan binolar buzilgan, ko'pchiligiga jiddiy shikast yetkazilgan. Shu tufayli ularning tarixini topish mushkul. Ayni vaqtda yupqa ipak qog'ozga chizilgan Sitorayi Moxi Xossa saroyining tarixi Buxoro davlat badiiy me'morchilik muzey qo'riqxonasining qo'lyozmalar fonida saqlanadi.



Undagi yozuvlar arab yozuvida bo'lib, fors tilida bitilgan. Tarixdagi ko'plab shiyponlar, hovuzchalar, ko'shklar, pavilonlar va aylanasimon filxona binolari bizgacha saqlanmagan.

Afsuski, tarixning muallifi noma'lum. U o'z ismi-sharifini yozib qoldirmagan. Qarorgohning hozirgi shaklidagi asosiy binolari mang'itlar sulolasining so'nggi vakili Mir Sayyid Olimxon hukmronligi davrida barpo etilgan. Shuning uchun qarorgoh tuzilishi eski va yangi saroylarga bo'linib, eski deganda, Olimxon hukmronligi davridan ilgari bunyod etilgan inshootlar nazarda tutiladi. Uning davrida Sitorayi Moxi Xossaga 300 nafar dehqon va soldatlar haydab kelingan, ular ikki yil mobaynida botqoqlikni quritib, hovuz qazib bog' barpo qildilar. 1911-1914-yillarda shu bog'da Buxoro ustalari muhandis Margulis loyihasi bo'yicha uchta bino: qabullar saroyi, shaxsiy bino, haram qurishgan.

Bu qurilishda usto Abdurahim Hayotov va Shirin Murodov, gilkorlar-Xo'jaqul, Hojiqurbon, yog'och o'ymakorlari Qori Chubin, Abdug'ofur, naqqosh Hasanjon ishtirok etdilar. Ayvon va Oq zal 1912-1914-yillarda qurildi, hovuz yonidagi bino esa 1917-1918-yillarda bunyod qilindi. Amir Olimxon saroy qurilishida ishtirok etgan ustalarning mehnatini yuksak qadrlab, ularga sovg'a-salomlar bergan.

Amir Olimxon hukmronligining so'nggi yillarida yozgi saroyida muqim yashab, davlat ishlari boshqaruviiga deyarli aralashmay qo'yib, Ark qo'rg'oniga kamdan kam boradigan bo'lib qoldi.

Natijada mamlakat mudofaasi sustlashib, Buxoroyi Sharif bolsheviklar tomonidan bosib olinadi.

Shunday qilib, XX asrning 50-yillarida bebaho madaniy merosimiz mafkuralashtirilib, Sitorayi Moxi Xossa saroyi va uning atrofidagi chorbog'larga tiklab bo'lmas zarar yetkazilgan.

Ko'plab noyob ashyolar talon-taroj qilinib, noyob daraxtlar, o'simliklar va hayvonlar yo'q qilib tashlanadi. Mustaqillik bularning bariga chek qo'ydi.

Xulosa qilib aytganda, mustaqillik sharofati bilan Sitorayi Moxi Xossa saroyi ta'mirlandi. 1991-yildagi Buxoro viloyati hokimi Damir Yodgorovning qarori bilan saroyning bog'i va sanatoriya ixtiyorida bo'lgan bir qism binolari qaytarib berildi. Buxoro-ko'p asrlik madaniyatga ega shahar bo'lib, o'zining ahamiyatini hozirgi kungacha saqlab kelmoqda.

Uning betakror me'morchilik obidalari va ansambllari chiroyiga to'yish, o'z hunarining asriy an'alarini avaylab saqlab kelayotgan amaliy san'at sohiblarining ijodiga tasannolar aytish, shunchaki tarix nafasidan bahramand bo'lish uchun har yili jahonning turli nuqtasidan sayyohlar oqimi oshib bormoqda.





Tarix zarvaraqlaridan joy olgan shu va shu kabi muhtasham inshootlar tarixini o'rganish, har birimizda Vatanimizga bo'lgan jo'shqin mehrni yanada oshishiga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Жумаев Қ, Ситораи Моҳи Хоса. –Тошкент: Фан, 2005. -Б.24.
2. Н. Наимов. БухороиШариф.-Бухоро: Бухоро, 2005.-Б.45.
3. Жумаев Қ. Ситораи Моҳи Хоса халқ амалий санъати музейи //Мозийдан
4. садо. –Тошкент: 2003.-№1. –Б.26.
5. Раҳмон Муиний. Бухоронинг меъморий ёдгорликлари.-Бухоро.2006.
6. Жумаева Н. Ситораи Моҳи Хосса бўйлаб. –Бухоро: 2018. -Б.88.
7. Қ.Ражабов, С.Иноятов. Бухоро тарихи. Тошкент: Tafakkur,2016.-Б.187
8. F.Bobojonova. Buxoro me'moriy obidalar tarixi. Buxoro. Fan va ta'lim, 2022y.

